

ISSN:3060-4567 Modern education and development
XALQARO TIJORAT HUQUQIDA NIZOLARNI ARBITRAJDA
VA BOSHQA ADR SHAKLLARIDA HAL QILISHNING O'ZIGA
XOSLIGI VA AHAMIYATI



Toshkent davlat yuridik universiteti

XALQARO TIJORAT ARBITRAJ MODULIDAN

“Xalqaro tijorat huquqida nizolarni arbitrajda va boshqa ADR shakillarda hal qilishning o'ziga xosligi va ahamiyati ” mavzusida yozilgan maqola.

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 3-kurs V patok talabasi Saynavov Ilhom Bahrom O'gli

Toshkent 2024

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

ilhomsaynavov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada xalqaro tijorat huquqida vujudga keladigan nizolarni, ayni vaqtida keng foydalanib kelinayotgan nizolarni hal etishning muqobil usullari hisoblangan arbitraj, muzokara, mediatsiya orqali yechim topishning o'ziga xosligi va ahamiyati haqidamalumotlar keltiriladi va ushbu maqolada nizolarning hal qilishning muqobil metodlarining ahamiyati paydo bo'lish tarixi, ularning o'zaro bir- biridan farqli jihatlari , ijobiy taraflari hamda salbiy jihatlarini bayon etiladi. Xalqaro tijoriy nizolarni odillik prinsipi asosida , tezkor hamda ijobiy yechim berish uchun bir qancha samarali metodlar hamda takliflar keltirilib o'tiladi. Maqolani yozish davomida Xalqaro tijorat huquqiga oid turli normativ huquqiy hujjatlar yani turli xil konvensiyalar,

shartnomalar, va o'zmizning milliy qonunchiligidan normalar keltirilib o'tiladi.

Key words: xalqaro tijorat huquqi, arbitraj, muzokara, mediatsiya, neytral kelishuv, ADR, arbitraj joyi, kollizion normalar hamda boshqalarni keltirishimiz mumkin.

KIRISH

Hozirgi vaqtga kelib dunyo bo'ylab tadbirkorlik sohasi , xalqaro tijorat va savdo, pudrat shartnomasi yani tovarlar va mahsulotlar yetkazib berish, turli xil xizmatlar ko'rsatish kabi iqtisodiyot sohalari jadallahib bormoqda. Tijorat sohasida o'z faoliyatini olib boruvchi har xil jismoniy va yuridik shaxslarning miqdori yildan yilga ortmoqda. Shu bilan birga tijorat sohasidagi yuqorida takidlab o'tgan yani jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida har xil shakldagi muammoli vaziyatlarga ham duchor bo'lmoqdamiz.Tomonlar gohida nizoni barham berish maqsadida institutsional sudlariga yani davlat sudlariga murojaat yo'llashsa , gohida nizoni hal qilishning suddan tashqari boshqa bir usullariga va metodlariga murojaat yo'llashmoqda . Bu kabi usullarga arbitraj, muzokara, mediatsiya, neytral kelishuv, ekspert xulosasi, beysbol arbitraj kabi suddan alohida tizimdagи hal qiliuv organlarini kiritishimiz mumkin.ADR (inglizcha Alternative Dispute Resolution) – boshqacha qilib tushuntirilganda , nizolarni hal qilishning muqobil usullari, davlat sudlaridan boshqa nizolarni hal qilishning hamma usullarini o'z ichiga qamrab oladi.Lekin malum bir huquqshunos olimlar ADR tarkibiga arbitrajni kiradi deb fikr bildiradi , ba'zilar kiritmaydi deb fikr bildiradilar Darhaqiqat , ushbu metodlarning va usullarning ijobjiy hamda salbiy jihatlari ko'p deyish mumkin.Hozirgi vaqtda xalqaro tijorat huquqidан vujudag kelayotgan nizolarni hal etish uchun taraflardavlat sudiga qaraganda ko'pchiligi ADRga murojaat yo'llashmoqda. Tomonlar nima sababli ushbu fikrga kelayotganliklari, nizolarni hal qilishning yaxshi yani zo'r yo'li o'zi qaysi biri ekanligi haqida ushbu maqola davomida keltirilib o'tiladi.

Xalqaro tijorat huquqida nizolarni hal qilish usullarining ahamiyati.

Hozirgi kunga qadar dunyo xalqlari orasida o‘zaro savdo va tijorat aloqalari boshlangandan beri ham ancha muddat o‘tib bo’ldi . Lekin tijoriy aloqalarning xarakteri hisoblangan tomonlar o‘rtasidagi kelishuv asosida har birining o‘zaro yuzaga kelgan huquq hamda majburiyatlarini kelishib olish, manfaati bor bo’lgan bo‘lgan holda daromad qilishlarning asosiy elementlari o‘zgarishsiz qolgan deyish mumkin . Tijorat ,munsoabatida tomonlar o‘rtasida paydo bo’layotgan muammoli vaziyatlar oldin ham bor bo‘lgan .Boshqacha qilib aytganda , tijorat munosabatlari rivojlanganki , muammoli vaziyatlar ham shubhasiz u bilan bir vaqtda vujudga kelgan . Oldingi zamonlarda nizolashayotgan tomonlarda ayni vaqtda bor bo‘lgan nizolarni bartaraf etishning yangi usullari va metodlari mavjud emas edi. Lekin muzokara, mediatsiya kabi nizolarni hal etishning metodlarining paydo bo’lishi uzoq yillarga birob borib taqaladi. Sababi , taraflar qadimgi zamonlarda o‘zaro kelishmovchiliklarni shunday yo’l yuriqlaridan foydalanib yechim topishga harakat qilgan. Tijoriy munosabatlar, huquqiy tizimlar jadallahsgan sari xalqaro savdo sohasida paydo bo’layotgan nizolarni hal qilishni usullari ham rivojlanib bordi. Jahondagi birinchi arbitraj kelishuvi 1795-yilda Buyuk Britaniya hamda AQSH o‘rtasida tuzilgan . Ushbu kelishuv 1872-yildagi Alabama nizosini ko‘rishda muhim ro’l o‘ynagan.Nizolarni hal qilishning usullari xuddi hozirgi kungcha qanday tendensiyada davom etgan bo’lsa keyingi muddatlarda ham takomillashadi.Lekin XX asrgacha bo‘lgan muddatda nizolarni hal qilishning muqobil usullarining hech qaysi biri alohida institut sifatida takomillashmadi. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari jumladan, arbitraj ham XX asrda alohida institut sifatida rivojlangan . Ushbu vaqtda arbitrajga doir ko’plab xalqaro konvensiyalar ishlab chiqildi . Bular orasida shak shubhasiz eng keraklisi 1958-yilda ishlab chiqilgan Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish to’g’risidagi Nyu-York konvensiyasi sanaladi .Ushbu normative hujjatdan ham bir nechata xalqaro normative huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Arbitraj hamda nizolarni hal qilishning boshqa muqobil metodlari ayni vaqtga qadar ham ancha rivojlangan va xalqaro tijorat sohasida paydo bo‘lgan nizolarni hal qilishning eng muhim yo’l yuriqlaridan biri sanaladi .Ayni vaqtda jahonning har xil

shaharlarida shu jumladan: London, Singapur, Nyu-York, Gongkong, Parij, Toshkent hamda shunga o'xhash boshqa bir shaharlarida xalqaro tijorat arbitraj markazlari bor.

Arbitraj va boshqa ADR shakllarining o'ziga xos xususiyatlari

Avvalambor Arbitraj hamda ADRning boshqa shakllari va xususiyatlari o'zi nima ekanligi, va nima sababli jahon bo'y lab ko'p tashkilotlar, kompaniyalar, jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatlar o'zaro nizolarini hal qilish uchun ushbu usullar va mtodlarga murojaat yo'llashayotganliklari haqida batafsil malumot berib o'tamiz. Arbitraj – xususiy sudlov tizimi hisoblanib , o'zining faoliyatini har qanday sudlardan alohida va mustaqil ravishda amalga oshiradi. Arbitrajni nizolashayotgan tomonlarning o'zlari kelishuviga binoan tanlashadi. Arbitraj kelishuvida taraflar o'zlari istagan arbitrlarni tanlashlari mumkin va taraflar o'zaro hamma huquq hamda majburiyatlarini ushbu kelishuvda ko'rsatib o'tishlari kerak bo'ladi. Taraflar o'zaro kelishib olishganlaridan keyin tanlagan arbitrajlariga murojaat yo'llab o'zaro nizolarini hal qilishadilar. Arbitrajning oxirgi qismida yani yakunida chiqariladigan hal qiluv qaror taraflar uchun majburiy ahamiyatga ega bo'ladi.Qonunchilikka binoan ham arbitraj alohida hamda o'zining reglamenti bo'yicha o'zining xizmat faoliyatini olib boradi va u qaysi davlatda tashkil etilgan bo'lsa ham ushbu davlatning milliy qonunchilik tizimiga teskari harakat qilmasligi shart .Masalan O'zbekiston Respublikasida ham tijorat arbitrajiga doir O'RQ-674-son 16.02.2021 yilda "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi" qonun ishlab chiqilgan . Shu qonunda arbitraj sudining qanday tashkil etilishi, arbitraj kelishuvi nima ekanligi, arbitralar sonini belgilash, hal qiluv qarorini qabul qilish singari bir qator normalar keltirilgan va shubhasiz ushbu normalar xalqaro hujjatlar asosida qabul qilingan.Toshkent shahrida o'zining xizmat faoliyatini olib borayotgan xalqaro arbitraj markazi (TIAC) ham ushbu qonun hamda boshqa xalqaro konvensiya normalariga binoan o'z faoliyat olib boradi.Hozir tijorat arbitrajining yuqorida keltirilmagan yani o'ziga xos xususiyatlari haqida malumotlar berib o'tamiz. M.L.Mozes o'zining kitobida xalqaro tijorat arbitrajining o'ziga xos xususiyatlari deb quyidagilarni bir necha bor ta'kidlab o'tgan yani :

- a) Har ikkala taraf ham eng avvalo arbitraj kelishuv yoki bo'lmasa arbitraj izohi bor bo'lsagina arbitrajga murojaat yo'llash mumkinligi;
- b) nizolashayotgan taraflarning arbitrlarni o'zлari mustaqil ravishda tanlash mumkinligi ;
- c) ishning natijasida chiqarilgan arbitraj qarorining tomonlar uchun yakuniy ekanligi hamda har ikkala taraf uchun ham ijro yuzasidan majburiy ekanligi ;
- d) xalqaro tijorat arbitraji nizoni hal qilishda yoki boshqa masalalarni hal qilishda davlat sudlari bilan bevosita va bilvosita hamkorlik qila olishini nazarda tutgan .

Arbitrajning ushbu xususiyatlari haqida ko'plab normativ huquqiy hujjatlarda misol uchun 1985-yilgi UNSITRIAL namunaviy qonunida va O'zbekiston Respublikasi Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi qonunida ham alohida normalar shaklida keltrilib o'tilgan.

ADR (inglizcha Alternative Dispute Resolution) – nizolarni hal qilishning muqobil usullari, ba'zi bir huquqshunos olimlar ADRni nizolarni hal qilishning boshqa bir usul va yo'l yo'riqlari deb ham ataydilar.Jahonning ko'pchilik mamlakatlarida misol uchun , Yevropada sud hamda arbitrajdan tashqari boshqa nizolarni hal qilishning hamma shakllarini ADRning tarkibiga kiritishadilar.Lekin AQSHda arbitrajni ham ADR tarkibiga kiritishadilar.Ushbu holatning asosiy sababi arbitraj ham deyarli mediatsiya, muzokara kabi nizolarni hal qilishning xususiy tizimi bo'lganligi uchun , shuningdek, ular o'xshash jihatlar bor ekanligi uchun kiritishadilar.Garchi arbitraj chiqargan qarorlari majburiy deb hisoblanib, mediatsiya hamda muzokara majburiy bo'lmasa ham ularning alohida umumiyligi mavjud. ADRda ham xuddi arbitrajnikidek nizolashayotgan tomonlarning o'zaro kelishuvi bor bo'lishi zarur. Mediatsiya hamda beysbol arbitrajida uchinchi tomon nizolashayotgan tomonlarni huquqiy normalar asosida o'zaro kelinishirishga harakat qiladilar.Lekin umumiyligi mavjud bo'lsada arbitrajning ADRning boshqa shakllaridan ancha farq qiladigan tomonlari yetarlicha topiladi.Maragret

Mozes kitobida ADRning turli shakllari berib o'tilgan yani mediatsiya (mediation) arbitrajdan farq qiladi chunki u majburiy emas. Arbitraj instituti arbitraj uchun qoidalari bilan bir qatorda mediatsiya uchun ham qoidalarni taminlaydi mediator har bir taraf boshqasining nuqatai nazaridan tushungaligiga ishonch hosil qilishiga harakat qiladi va ikkala tomon bilan ham alohida uchrashadi va ularga eng yaxshi yechim beradi va eng asosiysi mediatsiya jarayonida oshkor qilingan har qanday narsani keyingi bosqichada qo'llash mumkin emasligi to'g'risida yozma ravishdagi kelishuv bo'lisi kerak. Ushbu kitobda keltirilgan ikkinchi ADRning shakli bu murosaga keltirish (conciliation) hisoblanadi. Murosaga keltirish arbitrajdan farq qiladi chunki u majburiy emas. Biroq YUNSITRAL nuqatai nazardan garchi u o'zining joriy etish uchun qo'llanmasida amaliyotchilar neytral uchunchi tarafning ishtiroki miqdoriga qarab ikkalasini ajratib olishlari mumkinligi etirof etsada murosaga keltirish mediatsiyadan sezilarli darajada farq qilmaydi. Ananaga ko'ra mediatorlar ko'proq ko'maklashuvchi murosaga keltiruvchilar esa ko'proq yo'naltiruvchi sifatida ko'rib kelingan biroq bu farqlar bugungi kunda haqiqatga to'g'ri kelmaydi. ADRning uchunchi shakli bu neytral baxolash hisoblanadi. Institut neytral tarafni belgilash mumkin yoki taraflar har bir tarfni tinglaydi so'ng fakt masalasi qonun masalasi yoki bo'lmastexnik masala muammo haqida majburiy bo'limgan fikr xulosa beradigan neytral xolis taraf odatda ishning taraflarga keyingi kelishuv muhokamalarida o'zlarining davolariga nisbatan yanada realistik bo'lishlariga yordam berishi mumkin bo'lgan kuchli va kuchsiz taraflarni baholaydi. Undan keying shakl bu so'ngi taklif bo'yicha artbirtaj (beysbol arbitraji) bu har ikki tarafni qaror qilinishi kerak bo'ladigan miqdor qancha bo'lisi kerakligi nuqatai nazaridan bir biriga yaqinlashtirishga harakat qiladigan arbitraj texnikasidir. Har bir taraf qaror qilinishi kerak deb o'ylagan miqdor bo'yicha o'zining eng yaxshi taklifini bildiradi hamda arbitr faqat bir taklifni yoki boshqasini tanlsh imkoniyatiga ega bo'ladi va har qanday boshqa miqdorni tanlay olmaydi. Shunday qilib har bir taraf oqilonan bo'lisi uchun manfaatga ega chunki bir tarafning hisobi juda haddan oshgan taqdirda boshqa tarfning raqami tanlanadi bu bazan beysbol arbitraji deb ataladi chunki undan

qo'shma shtatlarning beysbol oliy ligasida o'yinchilarning sahrtnomlarini tuzish holatlarida foydalangan.Undan keyingi ADRning sahkli bu ekspert xulosasi hisoblanadi yani arbitrajdagi muammo yuqori darajadagi texbik savoloni o'z ichiga olgan taqdirda taraflar ushbu savolga ekspert xulosa berishi haqida kelishib olishlari mumkin.Ko'pincha ekspertning qarori majburiy bo'ladi biroq tarflar ekspertdan majburiy bo'lмаган xulosaga ruxsat beruvchi qoidalarga muofiq foydalanishga kelishishlari mumkin.

Arbitraj va boshqa ADR shakllarining nizolarni hal qilishdagi o'rni

Hozirgi vaqtga qadar dunyoda xalqaro huquqning subyektlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarborgan sari takomillashib bormoqda .Ushbu sharoitda har qanday ishbilarmon davr talabidan kelib chiqib oldingiga qaraganda yanda ko'proq daromdni ko'paytirishga harakat qiladilar.Tadbirkor,savdogar hamda boshqalarning eng muhum maqsadi shubhasiz,daromadni oshirib,nisbatan xarajatni kamaytirishdir.Lekin dunyoda hech kim har xil muammolardan, ziddiyatlarda qochib qutula olmaydi.Tadbirkor, savdogarlar ham shunday muammolarga duch keladi.Ushbu holatlarda nizolashayotgan tomonlar har xil yo'1 tutadilar.Qaysidir insonlar nizolarini hal qilish maqsadida davlat sudiga murojaat yo'llasa,boshqalari esa nizolarni hal qilishning davlat sudlaridan farq qiladigan boshqa shaklli: arbitraj, mediatsiya, muzokara kabilarga murojaat yo'llaydilar . Shubhasiz , nima bo'lgan taqdirda ham nizolashayotgan taraflar nizosini hal qilib olishadi. Lekin nizoni hal qilishda vaqtini, mablag'ni tejash tijorat faoliyatni olib borayotgan har bir shaxs uchun muhim o'rin tutadi .Quyidagi jadvalda hozirga vaqtida nizolarni hal qilishni bir qancha usullarining qiyosiy taqqoslanishi berib o'tilgan:

Texnik ekspertiza

Vaqt

Narx

Maxfiylik

Munosabatlarga zarar

Majburiy effect

Sud jarayoni

Yo'q

Uzoq muddat

Juda baland

Yo'q

Eng zo'r

Baland Arbitraj Bor Nisbatan o'zoqroq Uzoq Bor

Yaxshiroq Baland

Mediatsiya Bor Qisqa Eng uzoq Bor Eng kam

Maxfiylik yo'q

Qo'shimcha Bor Eng kam muddat Uzoqroq Bor Barvar =

teng Bazida

Ushbu garifikadan ko'rishimiz mumkinki yani nizolarni hal qilishning ko'plab yo'llari mavjud bo'lsa ham , ularning barchasi ham nizolashayotgan taraflar uchun deyarli bir xil foyda keltirmaydi. Shuing uchun ham ayni vaqtida ko'plab tijoratchi tashkilotlar nizolarini hal qilish uchun davlat sudlariga qaraganda nisbatan ADR shakllariga murojaat yo'llashmoqdalar. Quyida tijoratchi tashkilotlarning nima sabablarga binoan ushbu kabi qaror qilayotganliklari , arbitraj hamda boshqa ADR shakllarining xususiyatlari, kamchilik hamda afzallik taraflarini muhokama qilinib o'tiladi.

Arbitraj va boshqa ADR shakllarining afzallik va kamchiliklari

Shubhasiz . nizolarni hal qilish usullarining ijobiy hamda salbiy tomonlari ham topiladi. Arbitrajning ijobiy tarafi shundaki, eng avvalo arbitraj protsess oxirida chiqargan qaror taraflar uchun ijro etish majburiy sanaladi. Ish bo'yicha arbitrlarni ham taraflarning o'zlari tanlashadilar. Arbitraj jarayonida xalqaro miqiyosda yetarli darjada ish tajribasiga ega bo'lgan har xil ekspert, mutaxassislarning ishda qatnasha olishi ham ham ijobiy tarflari deyishimiz mumkin.Arbitrajda ishni ko'rib chiqish odatda odamlar ishtirokisiz maxfiy tarzda amalga oshiriladi hamda agarda arbitraj yakuni bo'yicha arbitraj hal qiluv qarorini tan olishda nizo paydo bo'ladigan bo'lsa , uni davlat sudlarida tan olish hamda ijroga qaratish xususiyati saqlanib qoladi.Yuqoridaq holatlardan tashqari artbitrajning bir qancha kamchilik taraflari ham mavjud.Arbitraj jarayonining

uzoq muddat davom etishi , ko'p jarayonlarda tarjimonlik xizmatidan foydalanishga to'g'ri kelib qolishi hamda sifatli tarjimon topish muammoligi , nizoni arbitrajning o'zida qayta ko'rishni imkonи mavjud emasligi ya'ni appellatsiya shikoyati berib bo'lmasligini salbiy taraflariga kiritishimiz mumkin albatta bu yutgan taraf uchun arbitrajning ijobiy tarafı sifatida qaralishi mumkin ammo yutqizgan taraf uchun asosiy kamchilik hisoblanadi deb aytishimiz mumkin.Bundan tashqari arbitraj jarayonlarning davlat sudlaridan ancha qimmatligini ham olishimiz mumkin misol uchun ishlarning ahamiyat darajasidan kelib chiqib ishning narxlari 500 ming dollardan 1 million dollarni tashkil balki ish hajmiga qarab bundan oshish holatlari ham bo'lishi mumkin.Yana bir kamchilik bu artbitrlar majburlash vakolatiga ega emaslar yani ularda arbitraj talabini bajarmagan tarafni jarimaga tortish vaklati mavjud emasligi arbitrajlarning asosiy kamchiligi deyishimiz mumkin. Arbitrajdan tashqari nizolarni hal qilishning boshqa muqobil usullari sanalgan mediatsiya, muzokara, neytral kelishuv hamda boshqalarning ham ijobiy hamda salbiy tomonlari bor. Foydali taraflari tomonlari quydagicha mobodo nizoni yakuni bo'yicha tomonlar o'zaro kelisha olmagan taqdirda sudga bevositda murojaat qila olish imkoniyati mavjud bo'ladi yani ish hal bo'lmasa bemalol davlat sudlariga har ikki taraf ham murajaat qilsa bo'ladi. Bundan tashqari nizoni qisqa muddat davomida ko'rish, va yana ishni ko'rib chiqish narxining ham hamyonbobligi ijobiy tomonidir.Salbiy tarafiga keladigan bo'lsak mediatsiya, muzokara hamda boshqalar bo'yicha nizoni hal qilishga kelishilgan bo'lsa ham yakuniy kelishuvning har ikkala taraflar uchun majburiy emas ekanligi , yakuniy kelishuvning taraflar uchun so'ngi yechim emasligini keltirishimiz mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi holatlar malumotlar bo'yicha yakuniy fikrlar beradigan bo'lsak tahlilimiz davomida arbitraj hamda boshqa bir ADR shakllarining bir qancha o'ziga xos xususiyatlar, afzallik hamda kamchilik taraflari bor . Yuqoridagi ADRning asosiy ijobiy va salbiy tarflarini qolaversa xalqaro arbitrajning ham foydali va kamchilik jihatlarini turli xil nazariyalar qolaversa amaliy misollar bilan yoritib berishga harakat qildik.Muammo paydo bo'lган

taqdirda eng avvalo o'g'izaki kelishib olishlari zarur deb hisoblayman garchi arbitraj va boshqa insitutlarga murojaat qilinganda tomonlarga malum bir yechimlar berilganda ham ulardan ishda qatnashish uchun ko'p vaqt,mablag',turli xil streeslarni sarflaydilar bularning o'miga ular tijorat sohasiga o'zlarining asosiy fokuslarini qaratsa yanada rivojlanishda davom etadilar.Agarda taraflar turli xil ziddiyatlar yuzasidan og'izaki kelishuvga erishmasalar ular arbitraj va davlat sudalriga murojaat qilishlaridan oldin albatta sudsaga bo'lgan kelishuvlarni amalga oshirishlari lozim deb bilaman chunki ularning hal qiluv qarorlari majburiy hisoblanmasada taraflar uchun arbitrajdan ko'ra ancha arzonroq deyishimiz mumkin.Turli xil mediatsiya,expert xulosasi,murosaga keltirish kabi nizolarni hal qilishning boshqa usullaridan o'tgan taqdirda yani ish natijalari taraflar uchun hal bo'lmaydigan taqdirda ular davlat sudaliga qaraganda arbitraj sudalariga murojaat qilishlari zarur deb bilaman chunki turxli xil xalqro kompaniyalr o'rtasida,xalqaro darajada o'zining obru etibori bor tashkilotlar obruyiga tasir ko'rsatish jihatlari bor yani arbitraj davlat sudalariga qaraganda maxfiylik jihadan bir necha marta rivojlangan bundan tashqari tarflar uchun majburiy qaror chiqarib berishlari bu eng kata yutuqlaidan biri deb hisoblayman.

FOYDALANGAN MANBAALAR

- 1.<https://www.britannica.com/event/Jay-Treaty> ilmiy biografiyasi
- 2 <https://newyorkconvention1958.org/> 1958 yilda qabul qilingan Nyu York konvensiyasi
<https://lex.uz/docs/-2025135> lex dagi shakli
3. <https://library-tsul.uz/ru/hal-aro-tizhorat-arbitrazhi-tamojillari-va-amaliyoti-margaret-l-mozes-2020/>
Margaret L.Mozesning xalqaro tijorat artbitarji tamoilari va amaliyoti kotib
4. <https://www.iisd.org/itn/en/2021/11/10/the-uncitral-code-of-conduct-breakthrough-or-diversion/> YUNSITRAL axloq kodeksi yo'riqnomasi
5. <https://iccwbo.org/news-publications/arbitration-adr-rules-and-tools/icc-expert-rules-english-version/>
Xalqaro bsavdo sanoat palatasi (ICC) mutaxasis (ekspert) qoidalari

6. https://www.lcia.org/Dispute_Resolution_Services/lcia-arbitration-rules-2020.aspx
LCIA qoidalari taraf vakillari to'g'risida yo'riqnomalar
7. <https://library-tsul.uz/ru/mezhunarodnyj-investitsionnyj-arbitr/>
Международный инвестиционный арбитраж. А.А. Данельян. 2013
8. <https://library-tsul.uz/ru/mezhunarodnyj-kommerchiskij-arbitrazh-rustambekov-i-r-2018/> Международный коммерческий арбитраж.
Рустамбеков И.Р. 2018.